

OILADA GENDER QADRIYATLI MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK VA TARIXIY ASOSLARI

Narzullayeva Guli Nozimjonovna

Annotatsiya. Mazkur maqolada oilada gender qadriyatli munosabatlarni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik va tarixiy asoslari tahlil qilingan. Oila shaxs ijtimoiylashuvining birlamchi instituti sifatida gender qadriyatlarini shakllantirishda muhim o'rin egallashi yoritilgan. Sharq mutafakkirlarining oilaviy munosabatlarga oid qarashlari hamda zamonaviy gender nazariyalarining ilmiy asoslari tahlil qilinib, oilada o'zaro hurmat, hamkorlik va tenglik tamoyillarini rivojlantirishning ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: oila, gender, gender qadriyatlari, ijtimoiylashuv, tarbiya, oilaviy munosabatlar, tenglik, hamkorlik, ma'naviy qadriyatlar.

Аннотация. В данной статье проанализированы социально-педагогические и исторические основы развития гендерно-ценностных отношений в семье. Освещается роль семьи как первичного института социализации личности в формировании гендерных ценностей. Проанализированы взгляды восточных мыслителей на семейные отношения, а также научные основы современных гендерных теорий. Раскрыта значимость развития принципов взаимного уважения, сотрудничества и равноправия в семье.

Ключевые слова: семья, гендер, гендерные ценности, социализация, воспитание, семейные отношения, равенство, сотрудничество, духовные ценности.

Abstract. This article analyzes the socio-pedagogical and historical foundations of developing gender-value relations within the family. It highlights the role of the family as the primary institution of socialization in shaping gender values. The views of Eastern thinkers on family relations and the scientific foundations of modern gender theories are examined. The importance of promoting mutual respect, cooperation, and equality within the family is revealed.

Keywords: family, gender, gender values, socialization, upbringing, family relations, equality, cooperation, spiritual values.

Kirish

Jamiyat taraqqiyoti va oilaviy munosabatlarning takomillashuvi gender qadriyatlarining shakllanishi bilan uzviy bog'liqdir. Oila insonning dastlabki ijtimoiylashuv muhiti sifatida shaxsning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, dunyoqarashi hamda erkak va ayolning jamiyatdagi o'rni haqidagi tasavvurlarini shakllantiradi. Shu sababli oilada gender qadriyatli munosabatlarni rivojlantirish masalasi pedagogika, sotsiologiya va psixologiya fanlarining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda, zamonaviy jamiyatda globallashuv va integrasion jarayonlarning keng ko'lamda quloch otishi, yangi muammolarni keltirib chiqara boshladi. Jamiyatshunos tadqiqotchilar tomonidan izchil va shuqur o'rganilishi lozim bo'lgan muammolar qatoriga bugun hech ikkilanmasdan "gender" jarayonlarni ham kiritish mumkin.

Sotsiologlar harakatimiz natijalari orasidagi tafovutga, ya'ni shu harakatlarimiz orqali vujudga keladigan kutilmagan natijalarga diqqat bilan e'tibor qaratadilar. Shunki bu holat jamiyat taraqqiyoti to'g'risida muammoga aylanib ulgurgan holatlarni aniqlashga yordam beradi. Biz tomonimizdan ilgari surilayotgan "gender" mavzusi bugungi kunga kelib muammoli vaziyat sifatida XX asr oxirlaridek shov-shuvli ahamiyat kasb etmasa-da,

o'zbeklar va ularning turmush tarzida ushbu masalaning ijtimoiy jihatlarini sotsiolog pozitsiyasidan turib ilmiy tahlil etish bizga yetarlisha o'rganish huquqini beradi.

O'zbeklar turmush tarzida oila-nikoh munosabatlari musulmon Sharqi qoidalari asosida belgilab berilgan qoidalar mukammal holatda uzoq davrlardan beri ishlab kelayotganligi bilan ma'lumdir. Aynan shunday keng ko'lamdagi jarayon sifatida e'tirof etilishi mumkin bo'lgan narsa – bu erkak kishining o'z oilasi ustida qayg'urishi, ya'ni “boquvshi” funksiyasini ado yetishligi bilan bog'liqdir. O'g'il bolalarga yoshligidan o'z oilasini ta'minlovshi shaxs sifatida tarbiya berib kelingan.

Ammo erkaklar uchun ishlab shiqilgan va an'anaga aylantirilgan “bo'ynidagi funksiya (vazifa)ni bajarish” uning ijtimoiy-ruhiy va ma'naviy hayotida qanday ahamiyat kasb yetadi? Hamma vaqt ham erkak o'z zimmasiga yuklatilgan «funksiya»ni ado eta oladimi? Agar u o'z zimmasiga yuklatilgan funksiyani ado eta olmasa unga jamiyat, qolaversa qarindosh-urug'lar, yaqin do'stlar va ayniqsa turmush o'rtog'i qanday munosabat bildiradi? O'z funksiyasini ado eta olmagan erkak taqdiri oxir-oqibatda qanday yakun toradi? Bu kabi savollarshodasi orqali biz qaysidir bir shaklda o'zbeklar turmush tarzidagi gender mavzusining bir jihatiga javob topsak ajab emas.

Ko'p holatlarda “erkak funksiyasi” deyilganda G'arb dunyosi va G'arb ta'siri doirasida fikr yuritadgan odamlar biologik-fiziologik omilni tushunishlari tabiiy. Ammo o'zbek oilasi munosabatlarida tushuniladigan erkak funksiyasi asosan turmush tashvishlari va moddiy imkoniyatlarni uchun yoki an'ana sifatida olib qarashi “erkak” sifatida gavdalanadi. Ammo ushbu funksiya jamiyat hayotida hech qachon oshkora e'tirof etilmaydi, yoki “kishining ichki “siri” sifatida qadrlanadi. Har bir erkak zimmasiga yuklatilgan holatlardan biri bu, qanday qilib bo'lsa ham “qo'shimsha daromad” qilish iste'dodiga ega ekanligi bilan alohida ahamiyat aks etadi. Agar erkak kishi qaysidir holatda qo'shimsha daromad qilish imkoniyatiga ega bo'lmasa – hesh qanday ogohlantirishsiz jamiyat a'zolari tomonidan “noshudlikda” ayblanadi. Uning jamiyat ijtimoiy tizimida egallab turgan lavozimi va mavqeyidan unumli foydalanish ololmasligi yesa, bemalol jamiyat a'zolari, xususan, uning qavmi-qarindoshlari, yaqin do'st-ulfatlari, qo'ni-qo'shnilar va hattoki xotini, ba'zida farzandlari tomonidan ham ayblash ushuni to'liq asos vazifasini o'tay oladi. «Falonsi ham sizga o'xshagan odam, siz qilgan ishni qiladi, kasbi ham siznikiga o'xshash, ammo u haqiqiy erkak...».

Ko'rinib turganidek “erkak” funksiyasi yana moddiy imkoniyatlarga kelib taqaladi. Oila yoki mahalla va universitet muhitidan kelib chiqib olingan tarbiya turlicha bo'lganligi uchun, hamma ham o'zida qo'shimcha daromad qilish layoqatini shakllantira olmaydi. Buning ustiga zamon o'zgarishi va bozor iqtisodiyoti jarayonida odamlarda tabiiy ehtiyojlarning oshib ketishi kishidagi mavjud imkoniyatni to'liq namoyon qilishga imkon bermaydi.

O'zbeklar turmush tarzida yoshlarning jamiyat hayotida erta nikoh qurish asosida turmush faoliyatiga olib kirish ham mazkur masalaning asosiy muammolaridan biri sanaladi. Oila qurilgach, erkak oldida nafaqat o'z oilasini ta'minlashi, balki «o'z bo'ynidagi qarzni uzish» masalasi ham yotadi. Ya'ni yendi u o'zini tarbiyalagan, vouaga yetkazgan va to'y qilib unioilali qilgan ota-onasini ham holidan xabar olib turishi “ham qarz, ham farz” hisoblanadi.

Shuningdek, o'z avlodidagi boshqa aka-ukalar to'y- hashamlarida oilaning boshqa a'zolari bilan barobar ishtirok yetishi va unga qilingan sarro-suruqlardagi qarzni oshig'i bilan qaytarishi lozim yoki yangi turmush qurayotganlarni qarz qilishi kerak bo'ladi. Avval faqat o'z qavmu qarindoshlari doirasida oldi-berdi ishlarida qatnashgan bo'lsa, endi turmush o'rtog'i (er yoki xotin) tomonidagi qarindosh-urug'lari bilan ham faol munosabatga kirishishi lozim bo'ladi. Bu ham qarz hisoblanadi. Undan tashqari turli xil milliy va mahalliy xarakterga

ega bo'lgan tadbirlar ham borki, unda ishtirok etmaslik jamiyat tomonidan qattiq qoralanadi.

Yana muhim jihat, bu savob ushuni qilinadigan tadbirlar va ota-bobodan qolib kelayotgan tadbirlar merosini amalga oshirish. Bular ushuni sarflanadigan barsha sarf-harajatlarni erkak o'z zimmasiga olish kerak. Negaki erkak topib keladi, ayol ro'zg'or ishlari bilan band. Buning ustiga, bolalar tarbiyasi, surur-sidir ishlari va har xil mayda-shuydalar.

Endi masalaning muhim tomoniga e'tiborimizni qaratamiz. Har qanday kishi qaysi korxonaga, tashkilot, idora yoki firmada ishlamasin biz yuqorida sanab o'tgan urf-odat va an'analar talabini to'liq uddalay olish imkoniyatiga ega emas. Ba'zan bir neshta davlat muassasida ishlab ham kishi o'ziga «yuklatilgan» talablarni bajara olmasligi mumkin. O'z imkoniyatlari chegaralangan erkak doimiy tavakkalchilik ishida yuradi. Jamiyatda belgilangan qonun va me'yorlardan chetga chiqishga majbur bo'ladi (deviant shaxs). Buning hammasi xavfli tavakkalchilik ekanligini u juda ham yaxshi his qiladi. Ammo «an'anaviy erkak funksiyasi» uni shu yo'lga majburan tortadi. U sira ham o'ziga «noshud» degan tamg'ani yopishtirilishini istamaydi. Uni olmaslik uchun ko'p harakat qilish kerak bo'ladi, juda ham ko'p harakat... Negaki, uni ma'lum bir vaqt o'tib o'z farzandlari ham aybdor qilishi mumkin, ya'ni noshudlikda ayblash. Xususan, farzandni boshqalarga nisbatan yomonroq yashashi, o'qishga kira olmasligi yoki yaxshi ishga joylasha olmaslik, o'z iste'dodi talabiga javob beradigan mavqega erisha olmaslik, xullas barchasi uchun «kimdir» aybdor bo'lishi kerak. Tabiiyki, bu o'z zimmasidagi funksiyani bajara olmagan kishi bo'lib qoladi.

Tadqiqotning ijtimoiy-pedagogik asoslari. Oilada gender qadriyatli munosabatlarni shakllantirish shaxsning barkamol rivojlanishi, oilaviy muhitning sog'lomligi va jamiyat barqarorligini ta'minlashning muhim omillaridan biridir. Gender qadriyatlari erkak va ayolning huquq va majburiyatlari, o'zaro hurmat, hamkorlik va mas'uliyat tamoyillariga asoslangan munosabatlar tizimini ifodalaydi.

Ijtimoiy-pedagogik nuqtai nazardan, gender munosabatlarning shakllanishida oila asosiy tarbiya instituti sifatida namoyon bo'ladi. Aynan oilada bola erkaklik va ayollikka xos ijtimoiy rollar, xulq-atvor me'yorlari hamda qadriyatlarni o'zlashtiradi. Shu bois otalarning pedagogik madaniyati, oiladagi ma'naviy muhit, milliy an'analar va ijtimoiy institutlarning tarbiyaviy ta'siri gender qadriyatlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Oilada gender qadriyatli munosabatlarni rivojlantirish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- insonparvarlik va shaxs qadr-qimmatini e'tirof etish;
- erkak va ayolning o'zaro hurmatiga asoslangan munosabatlar;
- oilaviy mas'uliyatning hamkorlik asosida taqsimlanishi;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligi;
- farzand tarbiyasida ota va onaning teng ishtiroki.

Mazkur tamoyillar oilada sog'lom psixologik muhitni yaratish, o'zaro ishonch va hamjihatlikni mustahkamlash hamda yosh avlodda bag'rikenglik, mas'uliyat va hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Gender qadriyatlarining tarixiy asoslari. Oilaviy munosabatlar va gender qadriyatlari Sharq mutafakkirlari merosida muhim o'rin egallagan. Abu Nasr Forobiy oilani jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida e'tirof etib, undagi hamjihatlik va axloqiy tarbiyani jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida baholagan.

Abu Ali ibn Sino «Tadbiri manzil» asarida oilada er-xotin o'rtasidagi o'zaro hurmat, farzand tarbiyasidagi hamkorlik va ma'naviy muhitning ahamiyatini alohida ta'kidlagan. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asarida oilaviy munosabatlar, odob-axloq, er va xotinning mas'uliyati hamda o'zaro hurmat masalalari yoritilgan.

Alisher Navoiy asarlarida insoniylik, mehr-oqibat va adolat g'oyalari markaziy o'rin egallab, oiladagi ma'naviy qadriyatlarning mustahkamligi inson kamolotining muhim sharti sifatida talqin etiladi. XX asr boshlarida Abdulla Avloniy oilaviy tarbiya va ayollar ma'rifati masalalariga alohida e'tibor qaratib, «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida ota-onaning farzand tarbiyasidagi mas'uliyati va oilaning ma'naviy taraqqiyotdagi o'rnini asoslab bergan. Zamonaviy ilmiy qarashlar. Zamonaviy gender nazariyalarida gender biologik emas, balki ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida talqin qilinadi. Simone de Bovuar, Enn Oukli, Judit Batler, I.S. Kon, A.V. Mudrik kabi olimlar gender rollari va munosabatlarining shakllanishida ijtimoiy muhit hamda tarbiya omillarining ustuvor ahamiyatga ega ekanligini ilmiy jihatdan asoslab berganlar.

Mazkur nazariyalarga ko'ra, oiladagi gender qadriyatlari o'zaro tenglik, hamkorlik, inson qadr-qimmatini hurmat qilish va mas'uliyatni adolatli taqsimlash tamoyillariga asoslanishi lozim. Bunday yondashuv oilada sog'lom psixologik muhitni shakllantirish, farzandlarning barkamol rivojlanishini ta'minlash hamda jamiyatda gender madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, oilada gender qadriyatli munosabatlarni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik asoslari insonparvarlik, tenglik, hamkorlik va o'zaro hurmat tamoyillariga tayanadi. Ushbu munosabatlarning tarixiy ildizlari Sharq mutafakkirlari merosida o'z ifodasini topgan bo'lib, zamonaviy gender nazariyalari bilan boyitilgan holda bugungi kunda oilaning barqarorligi va jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida namoyon bo'lmoqda. Oilada gender madaniyatining shakllanishi barkamol avlodni tarbiyalash, ma'naviy muhitni mustahkamlash hamda jamiyatda ijtimoiy adolat va hamjihatlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.
2. Ibn Sino A.A. Tadbiri manzil. – Toshkent: Fan, 1981.
3. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. – Toshkent: Fan, 1971.
4. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2011.
5. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
6. Beauvoir S. The Second Sex. – New York: Vintage Books, 2011.
7. Oakley A. Sex, Gender and Society. – London: Temple Smith, 1972.
8. Butler J. Gender Trouble. – New York: Routledge, 1990.
9. Kon I.S. Gender va sotsializatsiya masalalari. – Moskva: Progress, 1988.
10. Mudrik A.V. Sotsial pedagogika. – Moskva: Akademiya, 2000.